Uzbek Scholar Journal
Volume- 26, March - 2024
www.uzbekscholar.com

# DUAL TA’LIM NIMA? DUAL TA’LIM HAQIDA TUSHUNCHA

A. A. Jalilov,
Sh. T. Qodirova
Navoiy davlat pedagogika instituti

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Nizom asosida bugun joylarda ushbu ta’lim tajribasi qo‘llanilib kelinmoqda.

Xo‘sh, aslida dual ta’lim qanday tizim? O‘zbekistonda bu tizimni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad nima? U qanday natija beradi?

O‘zA muxbiri shu va boshqa savollar yuzasidan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Dual ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i Nodir Ergashev bilan suhbatlashdi.

**– Yurtimizda ta’lim sohasiga “dual ta’lim” tushunchasining kirib kelishiga nima sabab bo‘ldi?**

– Hammamizga ma’lum, iqtisodiyotni rivojlanishida o‘rta bo‘g‘in kadrlarining o‘rni alohida hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishchi kasb va mutaxassisliklarga bo‘lgan ehtiyoj juda yuqori ko‘rsatkichlarni tashkil etadi.

An’anaviy ta’lim shaklida o‘quvchi/talaba oliy yoki professional ta’lim muassasasida nazariy bilimlarni ko‘proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda o‘taydi.

Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimi o‘rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o‘qish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta’lim shakli O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritildi.

“Dual” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma’nolarni bildiradi.

Dual ta’lim – o‘quvchi/talabaga ta’limni o‘z yo‘nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir.

Bunda yoshlar 2-3 kun ta’lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko‘nikmalarni egallaydi.

Dual ta’lim shaklida tahsil olayotgan o‘quvchi/talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to‘lanadi.

bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o‘ringa ega.

**– Ushbu tizim mamlakatimizda qanday me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinmoqda?**

– O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 15-moddasiga muvofiq, “Dual ta’lim” ta’lim olish shakllaridan biri sifatida kiritildi. Qonunga dual ta’lim bo‘yicha alohida modda (17-modda) ham kiritilib, dual ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko‘rsatib o‘tildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. bugungi kunda dual ta’limni yanada rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rgangan holda, qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

**– Ushbu tizimni joriy etishdan koʻzlangan maqsad nima?**

– Maqsad iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy koʻnikmalarga ega oʻrta boʻgʻin kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga boʻlgan qiziqishlarini qoʻllab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Aytib oʻtganimdek, yoshlar ta'lim olish bilan birga haqiqiy ish joyida oʻz kasbiy koʻnikmalarini rivojlantiradilar.

Dual ta'lim shakli professional ta'lim tizimida yoʻlga qoʻyildi. 2021-2022 oʻquv yilidan boshlab, maktabgacha ta'lim, temir yoʻl va qurilish kabi sohalarda oʻrta boʻgʻin kadrlarini tayyorlash maqsadida professional ta'lim muassasalariga dual ta'lim shakli boʻyicha 3 mingdan ortiq yoshlar oʻqishga qabul qilindi.

2022-2023 oʻquv yilida professional ta'lim muassasalariga 4,5 mingdan ortiq yoshlar dual ta'lim shaklida oʻqishga qabul qilindi hamda yuqorida aytib oʻtilgan sohalarga qoʻshimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xoʻjaligi va xizmat koʻrsatish kabi sohalarda ham dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yoʻlga qoʻyildi.

bugungi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, 7,5 mingdan ortiq yoshlar respublikamizdagi professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklida ta'lim olib, 1,5 mingga yaqin korxona va tashkilotlarda ish faoliyatini olib bormoqda.

Oliy ta'lim tizimida esa faqat Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoat institutida dual ta'lim asosida oʻqitish yoʻlga qoʻyilgan (3- va 4-bosqich talabalari uchun). Kelgusi oʻquv yilidan boshlab, bosqichma-bosqich boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham dual ta'lim shakli asosida kadrlar tayyorlashni yoʻlga qoʻyish rejalashtirilgan.

**– Ushbu tizim Germaniya tajribasi asosida amaliyotga joriy etilyapti. Yurtimizda qanday natija beradi, deb hisoblaysiz?**

– Joriy yilning iyun oyida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshchiligida oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida professional ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va Germaniya tajribasi asosida dual ta'limni amaliyotga samarali joriy etish boʻyicha bir qator vazifalar belgilab berilgan edi.

Biz bilamizki, Germaniya oʻzining ta'lim tizimiga dual ta'limni bir necha yillar oldin joriy qilgan. Germaniyada dual ta'lim rivojlanishining asosiy omili qonunchilikda dual ta'lim ishtirokchilarining (korxona, oʻquvchi, ta'lim muassasasi) vazifalari va majburiyatlari aniq belgilab qoʻyilgan.

bugungi kunda Germaniyada 1,4 million yoshlar dual ta'lim shaklida ta'lim olishadi. Germaniyada har yili 500 ming oʻquvchi dual ta'limda ishtirok etish uchun korxonalar bilan shartnoma imzolashga erishadi va 74 foiz yoshlar oʻqishni yakunlagandan soʻng ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi imzolashga erishadi.Korxona tomonidan oʻquvchi(lar)ga malakali va maxsus sinovdan oʻtgan hamda sertifikatga ega boʻlgan ustoz biriktiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish va ish beruvchilarni jalb qilish Savdo sanoat palatasi va tarmoq savdo palatalari faoliyatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Hattoki yoshlarni kasbga yoʻnaltirish va kasblar toʻgʻrisida tushunchaga ega boʻlishi uchun 7-sinfdan boshlab oʻquvchilar korxonalarda yiliga 2-4 haftalik tanishuv (stajirovka) oʻtashadi. Yoshlar oʻzlari borgan korxona va tashkilotlar faoliyati bilan tanishib, kasblar toʻgʻrisida ma'lumotga ega boʻlgandan soʻng, oʻzi qiziqish bildirgan kasb boʻyicha korxona va tashkilotlar bilan shartnoma imzolaydi va dual ta'limda tahsil olish uchun ta'lim muassasasiga ushbu imzolangan shartnoma bilan hujjatlarini topshiradi.

Germaniyada dual ta’limda ishtirok etayotgan o‘quvchilarga ish beruvchi tomonidan oyiga o‘rtacha 930-1200 yevro oylik ish haqi to‘lanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimdek, dual ta’lim mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bo‘lib, ushbu tizimni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Dual ta’limni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mutaxassislar jalb qilinmoqda, mahalliy mutaxassislar Germaniya, Avstriya, Koreya va boshqa davlatlarga tajriba o‘rganish maqsadida yuborilmoqda va dual ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi ustida ishlanmoqda.

Shuningdek, xususiy sektorni dual ta’limga jalb qilish bo‘yicha ham tegishli ishlar olib borilmoqda.

**Adabiyotlar**

1. A. A. Djalilov TRAINING BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND EDUCATIONAL PROGRAMS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'COMPETENCE// Uzbek Scholar Journal Volume- 25, February, 2024 www.uzbekscholar.com

2. Jalilov Anvar Abdulloyevich, Rustamov Anvar Normamatovich MATEMATIKA FANINI O`QITISHDA KASBIY MAZMUNLI MASALALARNING SIFATLI TA`LIMDAGI AHAMIYATI // “UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI, MAY 15-16, 2023

3. Jalilov Anvar Abdulloyevich, Rustamov Anvar Normamatovich MAKTAB DARSLIKLARIDA FAZOVIY SHAKLLARNI O‘RGANISHDA KASBIY KONTEKSTDAGI MASALALAR// PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023

4. Жалилов А. А. ЯНГИ АХБОРОТ-ТАЪЛИМ МУҲИТИ ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИНГ ИННОВАЦИОН ТАВСИФИ СИФАТИДА// Uzbek Scholar Journal Volume- 25, February, 2024 www.uzbekscholar.com

5. Хакимов А., Турсунова Э.М., Кодирова Ш.Т. Об одном методе вычислений нестандартных, несобственных интегралов//ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ № 7 (110). Часть 3. 2021.

6. Хакимов А. , Боймуродов Ж.Х. , Кадирова Ш.Т. , Олтиев А.Б. Плоская задача об аэродинамическом взаимодействии встречных скоростных поездов прямоугольной формы в безграничной жидкости// ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ № 9(87). Часть 2. 2020.

7. А. А. Жалилов, Ш. Т. Кодирова // Математика ўқитишни ташкил этиш. математика дарси // E Conference Zone, 2024

8. А. А. Жалилов, Ш. Т. Кодирова // Математика ўқитиш воситалари// Conferencea, 2024

9. A. A. Jalilov, Sh. T. Kadirova // Fundamental theorem of circular geometry// Academia Repository, 2024

10. A. A. Jalilov, Sh. T. Kadirova//Solving geometric problems related to making only with the help of a circle// Academia Repository, 2024

11. A. A. Jalilov, Sh. T. Kadirova// CONCEPT OF VECTOR// Academia Repository, 2024

12. A.A. Jalilov, Sh. T. Qodirova //TALABALARDA AXBOROTLI–INTELEKTUAL KO ‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR// Uzbek Scholar Journal, 2024

13. A. A. Jalilov, Sh. T. Kadirova// SCALAR PRODUCT OF TWO VECTORS AND ITS PROPERTIES// Academia Repository, 2024

14. A.A. Jalilov, Sh. T. Qodirova// ZAMONAVIY BO ‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH HOLATI VA MUAMMOLAR TAHLILI// Uzbek Scholar Journal, 2024

15. А.А. Жалилов, Ш.Т. Кодирова// МАТЕМАТИКА ЎҚИТИШ ПРИНЦИПЛАРИ// E Global Congress, 2024.